

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



**TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA**

YAKUNIY HISOBOT



TURKIY DAVLATLAR XALQARO UNIVERSITETI
nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

60810100 – Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish
bakalavriat ta'lim dasturi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60810100 – Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TURKIY DAVLATLAR XALQARO UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260022
Xulosa raqami	634
Xulosa sanasi	23.05.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TURKIY DAVLATLAR XALQARO UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO'SHMA KORXONA
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 3A-uy; litsenziya № 2854171 / 20.06.2025
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60810100
Akkreditatsiya usuli	joyiga chiqib
Ekspertlar guruhi raisi (F.I.Sh., lavozimi)	DJAMALOV ZOHID ZAFAROVICH – Jizzax politexnika instituti, ekspertlar guruhi raisi

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 2854171 / 20.06.2025
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60810100 – Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60810100 – Agricultural Mechanization
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60810100 – Механизация сельского хозяйства
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	Ege Universiteti
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek, rus, ingliz, turk
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Muhandis-mexanik qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish bo'yicha
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	500 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 3A-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*	Muvofiq
1.2.	ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;	Muvofiq
1.3.	ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;	Qisman muvofiq
1.4.	mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;	Qisman muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*	Muvofiq
2.2.	ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;	Qisman muvofiq
2.3.	ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;	Qisman muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*	Muvofiq
3.2.	o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*	Muvofiq
3.3.	o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;	Muvofiq
3.5.	ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;	Muvofiq
3.6.	talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;	Muvofiq
3.7.	ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

I BOB. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi.

Yo'nalish bo'yicha 1.1 va 1.2-mezonlar to'liq muvofiq deb baholandi. Universitetning amaldagi Nizomiga muvofiq tarkibiy tuzilmalarning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari aniq tartibga solingan hamda ta'lim dasturlarini samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan holda belgilangan; har bir bo'linma faoliyati o'quv, ilmiy-uslubiy va tashkiliy jarayonlarning o'zaro uzviy integratsiyasi asosida tashkil etilib, bu jarayonlar ichki audit, kafedra va fakultet yig'ilishlari hamda sifatni boshqarish mexanizmlari orqali muvofiqlashtiriladi. Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yuzasidan tasdiqlangan 5 yillik istiqbolli rivojlantirish rejasi mavjud bo'lib, u oliy ta'lim muassasasining missiyasi, strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari (ta'lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqot, xalqaro hamkorlik, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va raqamlashtirish) bilan to'liq uyg'unlashtirilgan. Rejada har bir yo'nalish bo'yicha aniq maqsad va vazifalar belgilangani hamda strategik maqsadlar ijrosiga ta'sir qiluvchi xavflarni aniqlash, baholash va boshqarishga qaratilgan tizimli mexanizm ishlab chiqilgani ijobiy jihat sifatida qayd etiladi. Ta'lim dasturlarini baholash va takomillashtirish to'g'risida Rektorning U-2/2026-sonli buyrug'i mavjudligi manfaatdor tomonlar fikr-mulohazalarini inobatga olish yo'lida amaliy qadam ekani e'tirof etildi.

II BOB. Ta'lim dasturlari yo'nalishi.

Ta'lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ichki reglamentlarga muvofiq tizimli ravishda yo'lga qo'yilgani (2.1.1-mezon) ijobiy baholandi. Dasturni ishlab chiqishda ish beruvchilar, soha mutaxassislari va professor-o'qituvchilarning ishtiroki ta'minlangani, jumladan Navoiy Techno Textile Group MChJ bilan hamkorlik to'g'risida memorandum imzolangani jarayonning amaliy asosda tashkil etilganini tasdiqlaydi. Dastur Ege

Universiteti tajribasi asosida yo'lga qo'yilib, mazkur dastur ZIDEK akkreditatsiyasidan o'tgani va THEQC tomonidan tan olingani (EQAR ro'yxatida) xalqaro yondashuvlar inobatga olinganini ko'rsatadi. Yakuniy kvalifikatsiyalar Turkiy davlatlar xalqaro universiteti hamda Ege Universiteti diplomlarini berish orqali, ikki tomonlama (dual) diplom amaliyoti asosida, PQ-24-sonli qarorga muvofiq tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Sohaga oid dolzarb ilmiy, nazariy va amaliy bilimlar malaka talablari hamda o'quv dasturlarida inobatga olingani hamda ish beruvchilar tomonidan ularning dolzarbligi yuzasidan fikr-mulohaza berilishi imkoniyati mavjudligi qayd etildi.

III BOB. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi.

Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi. O'quv jarayoni ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga muvofiq tashkil etilgani, o'quv reja va sillabuslar Milliy malaka ramkasi (MMR), Davlat ta'lim standarti (DTS), kasbiy va xalqaro standartlar (EQF, TYYÇ) bilan muvofiqlashtirilgani hamda o'quv natijalari va kompetensiyalar mapping jadvali asosida asoslangani izohlandi. Baholash jarayonlarini samarali, adolatli va shaffof tashkil etishga qaratilgan tartib va mexanizmlar ishlab chiqilgani, "O'quv jarayonini baholash bo'yicha metodik qo'llanma" taqdim etilgani qayd etildi. Talabalarning baholash natijalari yuzasidan fikr-mulohaza va shikoyatlarni yig'ish mexanizmi mavjudligi hamda akademik halollik va apellyatsiya jarayonlariga oid yondashuvlar belgilangani ijobiy tomon sifatida e'tirof etildi. O'quv jarayonini doimiy monitoring qilish va takomillashtirishga qaratilgan mexanizmlar, talabalar bilimini shaffof va xolis baholash tizimi hamda baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi bo'yicha jiddiy e'tirozlar aniqlanmadi.

IV BOB. Talabalar faoliyati yo'nalishi.

Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi. Ta'lim dasturiga qabul mezonlari va talablari aniq belgilangani hamda ularni abituriyentlar va manfaatdor tomonlarga yetkazish mexanizmi mavjudligi qayd etildi. Abituriyentlar qabul natijalari haqida rasmiy veb-sayt (iuts.co.uz), axborot platformalari va boshqa rasmiy kanallar orqali o'z vaqtida va ochiq ma'lumot olish imkoniyatiga ega ekani, qabul jarayoni va natijalari bo'yicha shikoyat (apellyatsiya) berish mexanizmi hamda "Abituriyentlar murojaatlari va apellyatsiya tartibi to'g'risida Nizom" mavjudligi ijobiy baholandi. Qabul parametrlari universitetning strategik rejasi, missiyasi va akademik profili hamda moliyaviy imkoniyatlari (budjet, grantlar, kontrakt

tushumlari) bilan uyg'unlashtirilgani izohlandi. Talabalar harakati — o'qishni ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish, qayta tiklash va chetlashtirish — bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgani va qo'llanilayotgani tasdiqlandi. Talabalarni akademik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlash tizimi hamda "Talabalarni qo'llab-quvvatlash va maslahat berish strategiyasi" hujjati mavjudligi qayd etildi.

V BOB. Inson resurslari yo'nalishi.

Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi. Professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy salohiyatiga alohida e'tibor qaratilgani, asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangani hamda xorijiy hamkor (Turkiya) oliy ta'lim muassasalari professorlarini jalb etish orqali ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan yondashuv qayd etildi. Yangi ta'lim dasturlari uchun pedagog kadrlar ehtiyoji tahlil qilingani, fanlar bo'yicha zarur mutaxassisliklar va kompetensiyalar dastur maqsadlariga muvofiq shakllantirilgani, xorijiy kadrlarni jalb qilish bo'yicha "3–5 yillik istiqbolli reja (2026–2030)" hamda yosh mutaxassislarni doktorantura (PhD) dasturlariga maqsadli yo'naltirish choralari belgilangani ijobiy jihat sifatida e'tirof etildi. Kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, ilmiy maqolalar chop etish va loyihalarda ishtirok etishni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi ("Qo'shimcha ustama haq to'lash tartibi to'g'risida Nizom", kasbiy rivojlanish natijalarini hisobga olish mexanizmi) joriy etilgani qayd etildi.

VI BOB. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi.

Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi. Universitet zamonaviy o'quv binolari, auditoriyalar, laboratoriya va amaliy mashg'ulot xonalari, o'rindiqlar va ish joylari bilan ta'minlangani kuzatildi. O'quv xonalari axborot-kommunikatsiya vositalari (proyektor, kompyuter) va IT infratuzilma bilan jihozlangani, sport zali, stadion va sport maydonchalari, 345 o'rinli Madaniyat saroyi hamda 120 o'rinli studiya kabi maxsus xona va inshootlar mavjudligi qayd etildi. Inklyuziv ta'lim uchun binolar va o'quv xonalari nogironligi bo'lgan talabalar ehtiyojlariga moslashtirilgani (panduslar, keng eshiklar, qulay yo'laklar, sanitariya xonalari, liftlar) e'tirof etildi. Raqamli ta'lim muhiti HEMIS axborot tizimi orqali tashkil etilib, unda davomat, topshiriqlar va baholash natijalari elektron shaklda yuritilishi, tizimga kirish login-parol orqali amalga oshirilib, ma'lumotlar himoyalangan serverlarda saqlanishi ijobiy baholandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi. Biroq quyida keltirilgan kichik kamchiliklar bartaraf etilishi shart, aks holda ta'lim dasturining maqsad va natijalariga to'liq erishish cheklanadi.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan kichik kamchiliklar:

- ✓ Ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar va o'quv-uslubiy materiallarning mazmungan "Agronomiya" yo'nalishiga mos shakllantirilgani; ular "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish" yo'nalishi talablariga muvofiqlashtirilishi zarur.
- ✓ "Mexanizatsiya" yo'nalishi bo'yicha tasdiqlangan o'quv reja, fan dasturlari va sillabuslar, shuningdek ularning MMR, DTS va malaka talablariga muvofiqligini ko'rsatuvchi solishtirma tahlillar (moslik xaritalari) taqdim etilmagan.
- ✓ Sifatni ichki ta'minlash bo'yicha Nizom loyihasi tasdiqlanmagani va jamoatchilik uchun ochiq e'lon qilinmagani; mehnat bozori monitoringi natijalarini tasdiqlovchi tizimli hisobotlar hamda ish beruvchilar ishtirokini tasdiqlovchi dalolatnomalar yetishmasligi.
- ✓ "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish" yo'nalishi uchun zarur maxsus laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot jihozlari va moddiy-texnik baza hamda Axborot-resurs markazida sohaga oid o'quv, ilmiy va uslubiy adabiyotlar bazasi shakllantirilmagani.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning aniq ro'yxati, ilmiy daraja va unvonlarini (bakalavriat uchun kamida 35 foiz) tasdiqlovchi hujjatlar, shtatlar jadvali va yuklama taqsimoti; shuningdek kafedra hujjatlarini nomenklatura talablari asosida rasmiylashtirish yetarli darajada ta'minlanmagani.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Me'yoriy hujjatlar, ishchi o'quv reja, fan dasturlari va sillabuslarni "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish" yo'nalishi talablari hamda amaldagi davlat ta'lim standartlari va milliy malaka talablari asosida qayta ishlab chiqish va tasdiqlash.
- ✓ Sifatni ichki ta'minlash, baholash reglamenti, akademik halollik va apellyatsiya tartibi to'g'risidagi ichki me'yoriy hujjatlarni belgilangan tartibda tasdiqlash,

jamoatchilik uchun ochiq e'lon qilish hamda manfaatdor tomonlar ishtirokini hujjatlar bilan tasdiqlash.


- ✓Yo'nalishga oid maxsus laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot jihozlari va moddiy-texnik bazani mustahkamlash, Axborot-resurs markazini sohaga oid o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash.
- ✓Ta'lim dasturi bo'yicha faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilar tarkibini shtatlar jadvali, ilmiy daraja va yuklama taqsimoti bilan hujjatlashtirish, kafedra hujjatlarini Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi nomenklaturasi talablari asosida rasmiylashtirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Universitetda "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish" (60810100) ta'lim dasturini tashkil etish yuzasidan joyiga chiqib o'rganish natijasida tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlari bo'yicha holat tahlil qilindi. Universitetda zamonaviy o'quv binolari va shart-sharoitlar yaratilgani, ta'lim sifatini ichki ta'minlash mexanizmlari hamda dasturni rivojlantirish bo'yicha istiqbolli rejalar mavjudligi ijobiy baholandi. Shu bilan birga, dasturni amaliyotga joriy etish uchun zarur bo'lgan bir qator me'yoriy, o'quv-uslubiy, moddiy-texnik va tashkiliy kamchiliklar aniqlandi: ishlab chiqilgan hujjatlar mazmunan agronomiya yo'nalishiga mos ekani, ishchi o'quv reja va fan dasturlarining mexanizatsiya yo'nalishi talablariga to'liq mos emasligi, fanlar uzviyligi va uzluksizligining yetarli ta'minlanmagani, sohaga oid laboratoriya bazasi va o'quv adabiyotlarining yetishmasligi. Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish, me'yoriy va o'quv-uslubiy hujjatlarni yo'nalish talablariga muvofiq qayta ishlab chiqish, moddiy-texnik va axborot-resurs ta'minotini mustahkamlash hamda ta'lim jarayonini amaldagi davlat ta'lim standartlariga muvofiqlashtirish sharti bilan "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish" ta'lim dasturini shartli ravishda tashkil etish maqsadga muvofiq deb xulosa qilinadi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	05.06.2026-yil
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror (akkreditatsiyadan o'tdi/akkreditatsiyadan o'tmadi)	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

